



Received: November 4, 2023
Accepted: December 23, 2023
Available online: December 25, 2023

Kamola Muradkasimova

Pedagogika fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tashkent, O'zbekiston

Gulandom Bakiyeva

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

TA'LIM SIFATINI MODERNIZATSIYALASHDA VALIDATSIYA TIZIMI

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida OTMLari uchun yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ayni ta'lim bosqichida o'quv-uslubiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislarning bosqichma-bosqich malakalarini oshirish, magistratura talabalarining yuqori intellektual mahorat vositasida ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xususan, ularning pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qila olish qobiliyatlariga ega bo'lishlari amaldagi o'quv reja va dasturlarni uzluksiz isloh etish xususida fikr yuritildi.

Jumladan, ushbu tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim sifatini modernizatsiyalashga qaratilgan vazifalarning uzviylik konsepsiyasini ishlab chiqishdir. O'z navbatida, mazkur jarayonni g'oyalar tizimi deb belgilab olinganligiga asoslangan holda ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasi loyihasini tuzish hamda mazkur loyihada vazifalar ketma-ketligini yoritib berish, uning amaliy natijadorligini ko'rsatish ushbu tadqiqotning eng muhim vazifalari sifatida belgilandi. O'z o'rnida qayd etish joizki, ushbu vazifalarni samarali bajarishda asosiy jarayonning loyihalash metodiga tayanuvchi 4 bosqichi ishlab chiqildi: (1) ta'lim standartini takomillashtirish; (2) o'quv dasturlarning uzviyligini ta'minlash; (3) modul mas'ullari (liderlari) tizimini tatbiq

Kamola Muradkasimova

Doctor of Sciences in Pedagogy (DSc)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
Email: kmuradkasimova@yahoo.com

Gulandom Bakieva

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: philologymatters@uzswlu.uz

THE PROCESS OF VALIDATION IN MODERNIZING THE QUALITY OF EDUCATION

ABSTRACT

The article discusses the gradual improvement of training highly qualified pedagogic personnel for Higher Education Institutions (HEIs) based on advanced foreign experiences. It also emphasizes the need to enhance the qualifications of specialists responsible for educational and methodological activities at the academic stage. Creating necessary conditions for master's students to conduct scientific research and acquire pedagogical activity, management, critical thinking, and systematic analysis skills is also highlighted. Additionally, the article stresses the continuous need for reform of current curricula and programs to achieve these goals.

The main aim of this study is to develop the concept of task unity in modernizing the quality of education. The study also focuses on creating a project that defines the process of modernization as a system of ideas and shows its practical effectiveness by specifying the sequence of tasks involved. To achieve this, the study developed four stages of the main process based on the design method, which include: (1) improving the educational standard, (2) ensuring the integrity of educational programs, (3) implementing a system of module managers (leaders), and (4) introducing a system of validation of educational results. By integrating special indicators of the process, the sequence of tasks was highlighted, and their practical effectiveness was demonstrated.

etish; (4) ta'lim natijalarini validatsiya qilish tizimini joriy etish. Natijada vazifalar ketma-ketligi yoritilib, ularning amaliy natijadorligini ko'rsatish maqsadida ularni integratsiyalash orqali jarayonning maxsus indikatorlari ishlab chiqildi.

Xulosa sifatida ta'lim tizimi va standartlarini yanada takomillashtirishda ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasining to'rtta bosqichining muhim ahamiyat kasb etishi hamda ularni amalga oshirishda ishlab chiqilgan metodik taklif va tavsiyalarni inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etishi qayd etildi. Shuningdek, unda amalda ish beruvchilarning talablarining ta'lim dasturlari mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish orqali ta'limning sifatini oshirish, bitiruvchilarning nafaqat malaka va bilimlarini, balki ularning kasbiy tajribalari, ko'nikmalari, kompetensiya darajalari hamda shaxsiy ishbilarmonlik xususiyatlarini ham inobatga olgan holda tan olish hamda validatsiya qilishning moslashuvchan shaffof va xolisona mexanizmlarini joriy etish ayni mudao ekanligi e'tirof etildi. Bundan tashqari, talabalarning malakalarini baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda belgilangan klassifikatorlar bilan integratsiyasini ta'minlash soha mutaxassislarining amaldagi birlamchi vazifasi ekanligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ta'lim tizimi, ta'lim standarti, dastur uzviyligi, modul liderlari, validatsiya tizimi.

KIRISH

Bugungi kunda "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha tarmog'ining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" [Muradkasimova, 2022; 48-49] dolzarb va asosiy talablardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifa, avvalo, "oliy ta'limdagi qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"ni [Muradkasimova, 2022; 48-49] rivojlantirishga qaratilgan ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etishni talab etadi.

"O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat

In conclusion, it was observed that the four stages of modernizing the quality of education are crucial in the further improvement of the educational system and its standards. It is of urgent importance to consider the methodological proposals and recommendations developed during their implementation. In practice, enhancing the quality of education involves strengthening the interdependence of employers' requirements with the content of educational programs. This should take into account not only graduates' qualifications and knowledge but also their professional experience, skills, competency levels, and personal business characteristics. It was also recognized that the implementation of flexible, transparent, and objective mechanisms of recognition and validation is essential. Additionally, it was noted that the primary task of experts in this field is to significantly improve the system of evaluating students' qualifications and ensure their integration with the classifications specified in the decision on measures to provide the labor market with qualified personnel.

Key words: modernization, educational system, educational standard, program integrity, module leaders, validation system.

jihtatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish" maqsadida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" [O'zRes PF-5847-son Farmoni, 2019] (keying o'rinlarda – Konsepsiya) tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator maqsad va vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, "xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" kabi vazifaning samarali ijrosi "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga" aylantirishga olib kelishi ko'zda tutilmoqda" [O'zRes PF-5847-son Farmoni, 2019].

Bunda, avvalo, "zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi (hozirgi zamon dunyo madaniyati, ijtimoiy va moddiy taraqqiyotning muayyan bosqichi) yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratildi" [O'zRes PF-5847-son Farmoni, 2019]. Zero, bugungi kunda "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha tarmog'ining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" amalda mazkur ta'lim tizimidagi dolzarb va asosiy talablardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifa, dastavval, "oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini" rivojlantirishga qaratilgan ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro aloqalar natijadorligini oshirib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini hamda xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha bir qator loyihalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Xususan, shu kabi loyihalar "oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar" ishlab chiqishda o'z samarasini ko'rsatadi. Ammo, xalqaro doirada xalqaro standartlarni qo'llash bo'yicha "professor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi yetarli darajada emasligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda. Binobarin, oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash, oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish" va "oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha strategik maqsadlar va ustuvor yo'nalishlar Konsepsiyada belgilab berilgan. Mazkur Konsepsiyada, oliy

ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib", ushbu tadqiqot ishini quyidagi ishlarning amaliyotdagi ijrosini ta'minlashda dolzarb deb hisoblash mumkin [Muradkasimova, 2019; 55]:

“oliy ta'limdagi qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, bunda, xususan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;

gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablari uchun xorijiy tillarni o'zlashtirgan, ta'limning zamonaviy drayverlari – malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish tizimini rivojlantirish;

ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirib borish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislarni bosqichma-bosqich ravishda malakasini muntazam oshirib borish;

magistratura talabalarining yuqori intellektual mahoratda ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish;

yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlarni ta'lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, muayyan ko'rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish;


oliy ta'lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgan professor-o'qituvchilar va talabalar ulushini tizimli ravishda oshirib borish” kabi vazifalarni amalga oshirish Konsepsiyaning asosi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, avvalambor, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati va baholash kompetensiyasini takomillashtirishni talab etadi [Muradkasimova, 2022].

Mazkur talablar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash sifatini kuchaytirish, ta'lim jarayonida ilg'or xorijiy tajriba hamda zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash dolzarb vazifalardandir. Shu maqsadda mazkur maqola ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasini taklif etishga bag'ishlangan.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda biz ta'lim sifatini modernizatsiyalashga qaratilgan vazifalarning uzviyligini konsepsiyaning asosi deb belgilab oldik. Konsepsiyani g'oyalar tizimi deb belgilab olinganligiga asoslangan holda ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasi loyihasini tuzish hamda mazkur loyihada vazifalar ketma-ketligini yoritib berish, amaliy natijadorligini ko'rsatish maqsad qilib olindi. Shunday ekan, ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasi vazifalarini loyihalash bosqichlari yordamida uzviyligiga asoslangan holda ishlab chiqildi [Muradkasimova, 2022] (1-rasmga qarang):

1-rasm.



NATIJALAR

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnikaning rivojlanishi yosh avlodning ko'p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo'lishi uchun bir necha chet tillarini mukammal bilishni taqozo etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga chet tillarni o'rgatish bo'yicha xalqaro hujjatlarga asoslangan uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlarini joriy etish orqali ta'minlanadi. Ta'lim standartlarini takomillashtirish jarayonning *birinchi bosqichi* hisoblanadi.

Yevropa Kengashining "Chet tilini bilishning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjati umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan biri sanaladi. Ushbu hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda, O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rganish bo'yicha mazkur Davlat ta'lim standarti ishlab chiqildi. Mazkur Davlat ta'lim standartining tuzilishi chet tillarni o'qitishning barcha bosqichlari uchun quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv fanini o'rganishning maqsad va vazifalari;
- o'qitish mazmuni;

■ ta'limning barcha turlaridagi ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga qo'yiladigan majburiy talablar [Council of Europe, 2020; 27].

Muammo shundaki, davlat ta'lim standarti Yevropa Kengashining "Chet tilini bilishning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjatining ayrim holatlarini nazarda tutgan holda tuzilgan bo'lib, mazkur holatlar faqatgina bitiruvchilarning tayyorgarligiga qo'yiladigan majburiy talablar bilan chegaralanib qolgan. Bizning nazarimizda Davlat ta'lim standarti ta'lim maqsadi, kontenti hamda baholash ko'rsatkichlari (indikatorlari)ni ham belgilashi

lozimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoniga asosan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”; “oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” kabi ustuvor vazifalar belgilandi [O‘zRes PF-5847-son Farmoni, 2019].

Mazkur vazifalarning amaliy ijrosi sifatida Davlat ta’lim standartida nazardan chetda qolgan talabalarning ta’lim natijalarini baholash me‘yorlarini belgilab chiqish lozim. Mazkur holat, o‘z navbatida, barcha uchun bir xil darajadagi ta’lim tizimini tashkil etish hamda baholashni talab etadi.

Standartlamoq bir standartga keltirmoq, standartga muvofiq, bir xilda, bir qolipda ishlamoq, yasamoq, hozirlamoq demakdir [O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005]. Standartlash – fan, texnika va amaliy tajribalarning umumlashtirilgan yutuqlariga tayangan holda standartlar belgilash va ularni tarmoqlarda qo‘llash jarayonidir. Undagi berilgan indikatorlar foydalanuvchining talabiga, maqsad etib qo‘yilgan vazifalarga, muammoni kompleks yoritishi, ma’lumotni umumlashtirish, tizimli va uzviy bo‘lishi hamda ishonchli, shaffof, keng qamrovli va aniq bo‘lishi lozim.


Shu o‘rinda ta’lim tizimida ta’lim standartining o‘rni va zarurati haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Berri O’Sullivan ta’lim samaradorligini ta’minlashda fan dasturi, ta’lim mazmuni va baholash jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi [O’Sullivan, 2008; 13]. Bu borada tadqiqot olib borgan olimlar, jumladan, J.Biggs [Biggs, 1996], N.J. Muni, A.T. Mausbach [Mooney & Mausbach, 2008], R.J. Pat-El, H. Tillema, M. Segers, P. Vedder [Pat-El et al., 2013], M. Akram, S.J. Zepeda [Akram & Zepeda, 2015], E. Molina, S.F. Fatima, A.D.Y. Ho [Molina et al., 2018], K. Meyyer-Luz, S. Richards, S. Brandell [Meyer-Looze et al, 2019] ham ta’lim standartining har tomonlama muhim ahamiyati va imkoniyatlarini batafsil o‘rganishgan.

1990-yilda “The American Federation of Teachers”, “National Council on Measurement in Education” va “National Education Association” tashkilotlari tomonidan “Standards for Teacher Competence in Educational Assessment of Students” standarti ishlab chiqildi. Mazkur standart 7ta mezonidan tashkil topgan bo‘lib, ular:

“pedagog assesment metodini ta’lim talabiga mos ravishda tanlash; tuzish; assesmentni tashkil etish, baholash va natijalarini to‘g‘ri tahlil qilish; talaba o‘zlashtirish darajasi haqida qaror qabul qilganda assesment natijasini to‘g‘ri qo‘llay olishi, darsini rejalashtirishi, o‘quv dasturi va ta’lim jarayonini takomillashtirish; ishonchli assesment tuzish va baholash malakalariga; assesment natijalari va talabaning bahosini talabaga, ota-onaga, rahbariyatga va hamkasblariga taqdim etish etiketiga; nomaqbul assesment metodlarini aniqlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi malakalariga ega bo‘lishi”dan iborat [National Education Association, 1990]. Ya’ni, ta’lim standarti nafaqat o‘qitish

mazmuni, bitiruvchilar tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar balki baholash jarayoni bilan integratsiya bo'lishi ham lozimdir. Mazkur jarayonni esa mukammal ishlab chiqilgan ta'lim standartigina amalga oshira oladi (2-rasmga qarang):

2-rasm.




Darhaqiqat, ta'lim mazmunini samarali tashkil etishda barcha bosqichlarning uzviyligi hamda standartga asoslanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan umumtalablar, ko'rsatkichlar, sifat me'yorlarini ishlab chiqish va standartlashtirish sifatni oshirish va bir qolipga asoslangan holda ishlashni ta'minlaydi [Susan, 2011].

Shu o'rinda mazkur bosqichlarning uzviyligini ta'minlash rivojlantiruvchi ta'lim modelini amalga oshiradi. Aniqrog'i, standart asosida fan dasturi, o'quv adabiyotlar, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi hamda ta'lim natijalarini baholash jarayonlarining uzviyligi ta'limni rivojlantirish modelining asosi hisoblanadi [Biggs, 2003a] (3-rasmga qarang):

3-rasm.

Standart, fan dasturi, o'quv adabiyotlar, pedagogning kasbiy tayyorgarligi hamda ta'lim natijalarini baholash jarayoni uzviyligining rivojlanish modeli



Yuqorida keltirilgan o‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda ta’lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar, hodisalar birligi, majmuidir [Streveler et al., 2012; 17]. Mazkur ilmiy maqolada uzviy tartibda keltirilgan didaktik va metodik vazifalar hamda takliflarning amaliyotdagi ijrosi ta’lim sifatini modernizatsiya qilish konsepsiyasining [Biggs, 2003b] o‘ziga xos o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonda *ikkinchi bosqich* o‘quv dasturlarning uzviyligini ta’minlash deb belgilab olingan. Ta’lim sifati samaradorligini ta’minlashda ishchi reja hamda o‘quv dasturlarning talab asosida ishlangani hamda uzviy strukturaga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi [Lightfoot & Schwager, 2013; 15]. Bunday strukturaga ega o‘quv rejasi ham talaba, ham pedagog uchun kursning mazmun-mohiyati haqida to‘liq ma’lumot beradi. O‘quv yilining boshidan talabalar hamda pedagoglar kursning maqsad va vazifalari, asosiy va qo‘shimcha vositalari, talablari, baholash vazifalari va mezonlari, qo‘llanadigan metod va texnikalari [Martone & Sireci, 2009; 1320] haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Talabalarning chet tilini o‘zlashtirishda erishgan yutuqlarini tahlil qilishning yagona yo‘li to‘g‘ri tuzilgan assesment turidir. Ta’lim berish va ta’lim olish sifatini nazorat qiluvchi asosiy element – baholashdir. To‘g‘ri va sifatli tuzilgan assesment aniq vazifalarni ro‘yobga chiqarishni maqsad qiladi. Bajara olinadigan vazifalarni (yod olish emas, balki malaka va ko‘nikmani rivojlantirish va real hayotda qo‘llash) kabi vazifalarni yuklaydi. Shu bilan birgalikda, to‘g‘ri tuzilgan assesment talabalarga o‘z-o‘zini nazorat qilish, amaliy shug‘ullanish, qayta shug‘ullanish va fidbek olish imkoniyatlarini yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda, to‘g‘ri tuzilgan assesment izchil ta’lim tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, baholashning maqsadi, turlari kursning maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi va o‘quv yilining boshidanoq aniq belgilanishi zarur [Yamanaka & Wu, 2014; 62].


Ammo pedagoglar kursning mazmuni qanday va talabaga nimalarni o‘rgatish kerak, o‘qitishning qaysi metod va usullaridan foydalanish lozim degan savollarga katta e’tibor qaratishadi va talabalarning o‘zlashtirishini qay usul bilan baholash kerak mazmunidagi savollarga uncha ahamiyat berishmaydi. Aynan shu holatlar nazorat jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z o‘rnida o‘qituvchining chet tilini baholash kompetensiyasi darajasini belgilab beradi.

Aksariyat jarayonlarda o‘quv dasturlarning strukturasi mazmuni, qo‘llanadigan metodlar va oxiri yakuniy natija, ya’ni baholash – ta’lim natijalarini baholash bilan tugaydi. Pedagoglarning asosiy kamchiligi mazkur jarayonni quyidagidek tatbiq etishlarida (4-rasmga qarang).


Mazkur jarayonni takomillashtirishda “Backward Design” [McTighe & Thomas, 2003] yondashuvi samarali hisoblanib, aksariyat tadqiqotlarda uning natijasini ko‘rish mumkin. Mazkur yondashuv yuqoridagi pedagoglarning ta’lim jarayonini rejalashtirishning teskari ya’ni jarayonni yakunidan boshlab reja qilishni ilgari suradi. Avval, yakunidan boshlab ya’ni erishish maqsad etilgan natija, uni baholash metodlari bilan integratsiya qilish, uning asosida ta’lim mazmuni/kontentini tuzish va so‘ngra mashq va topshiriqlar tipologiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi [Richards, 2013]. Ta’lim jarayonini rejalashtirishning mazkur yondashuvi uchta asosiy bosqichga [Carr

& Harris, 2001; 18] bo‘linadi (5-rasmga qarang).

4-rasm.



5-rasm.




O‘quv rejasini loyihalashda yuqori natijaga erishish, ya’ni ehtiyojlarni tahlil qilish, rejalashtirish va materiallarni ishlab chiqishda samarali resurslarni jalb qilish Backward design yondashuvini qo‘llash orqali amaliyotga joriy etilishi mumkin. Mazkur yondashuv yuqorida keltirilgan uzviylikni samarali ishlab chiqishda konseptual asos sifatida qo‘llanishi mumkin. Sababi, yakuniy erishilishi ko‘zda tutilga natija hamda baholash metodlari dasturni tuzishdan avval aniqlanadi. Bu esa o‘z o‘rnida ta’lim kontentini ya’ni nimani o‘qitishni aniqlashda asos hisoblanadi. Bu jarayonlarning uzviyligi ta’lim sifatini takomillashtirish hamda o‘quv dasturlarini samarali, uzviylikda tuzilishini ta’minlaydi. Shunda yuqoridagi jadval quyidagidek ko‘rinishda bo‘ladi (6-rasmga qarang).

Ta’lim tizimi uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayoni esa o‘z o‘rnida mutaxassis va tajribali pedagoglar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun esa loyihalash jarayonining uchinchi bosqichi “Modul ma’sullari” (liderlari) [Lai & Cheung, 2015; 675] tizimini tabiiy etish maqsadga muvofiq. Modul ma’sullari – bu fakultetdagi malakali pedagoglar bo‘lib ular o‘quv dasturning bir qismi sifatida nomlangan modulni ishlab chiqish, tashkil etish va boshqarish hamda ushbu modul bo‘yicha talabalarning akademik tajribasi uchun

javobgar mutaxassisdir [Cook & Hatala, 2016; 15].

6-rasm.



“Modul ma’sullari” (liderlari) har o’quv yilining boshidan oxirigacha modulning validligini nazorat qiladilar, ya’ni:

- modulga rahbarlikni ta’minlash va modul bo’yicha o’qitish va baholash, modulni samarali yetkazib berish va ko’rib chiqishni muvofiqlashtirish, o’quv dasturi va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini izlash uchun barcha xodimlar uchun aniq ko’rsatmalar ishlab chiqish;

- modul ma’sullari bilan ishlash quyidagilarni ta’minlaydi: modul akademik jihatdan izchil ishlab chiqilishi; pedagoglarning shu sohadagi tadqiqotlardan xabardor bo’lishi; yakuniy natijalarning maqsad bilan izchil bog’liqligi hamda shunga mos baholash metodlarini ishlab chiqish;

- modul ma’sullari modulni rejalashtirilgan tarzda yetkazib berish va modulni yetkazib berish uchun resurslar/ta’minotning mavjudligiga ishonch hosil qilish [Lai & Cheung, 2015; 675].

Yuqoridagilarni xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim sifati samarali ishlab chiqilgan konsepsiya/tizim orqali ta’minlanadi. Ta’lim sifatini ta’lim natijalarini samarali monitoring qilish esa validatsiya jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonini loyihalash bosqichining to’rtinchi bosqichi “Ta’lim natijalarini validatsiya qilish tizimini joriy etish”dir. Mazkur bosqich quyidagi

- mehnat bozori ish beruvchilar talabi bilan ta’lim mazmunini integratsiya qilish;

- nazorat jarayonining muvofiqligi, shaffofligini nazorat qilishda tegishli bo’limlarning ish faoliyati samaradorligini nazorat qilish;

- kurs maqsadi, vazifalari, ta’lim mazmuni, baholash metodlari, baholash mezonlarini muvofiqligini tahlil qilish;

- assesment topshiriq turlarini modul ma’sullari va pedagoglar bilan muhokama qilish va standartlashtirishga erishish;

- o’quv yilining boshida modul ma’sullari va professor-o’qituvchilar bilan J.N, O.N, va Y.N. turlarini rejalashtirish;

- o‘quv qo‘llanma, darslik, majmualarning kontentini tahlil qilish;
- talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining monitoringini olib borish hamda natijalarni manfaatdor shaxslarga yetkazish;
- obyektiv baholashni ta‘minlash maqsadida baholash mezonlari, vositalari va materiallarni ishlab chiqishda o‘qituvchilarga amaliy yordam ko‘rsatish [Muradkasimova, 2022];

Modul liderlari har chorakning boshida o‘qituvchilar bilan yig‘ilib, standart asosida belgilangan vazifalarni (chet tilini bilish darajasi, dars o‘tish metodikasi, pedagogik texnologiyalar) belgilab olib, o‘quv yili davomida mazkur talablar ijrosini monitoringini olib borishadi hamda chorakning yakunida pedagog va talabaning samaradorlik ko‘rsatkichi statistikasi chiqariladi. Shuningdek, modul liderlari pedagoglarga o‘quv yili davomida kundalik ish faoliyatlarida samarali ishlanmalarni yaratishda ta‘limni tashkil etishda nazariy bilimlarni emas balki amaliy malakalarni takomillashtirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar ta‘lim sifatini modernizatsiya qilishda amaliy ijrosi ta‘lim standartlarida nazardan chetda qolgan me‘yorlarni belgilab beradi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ta‘lim berish va ta‘lim olish jarayonini samarali tashkil etishda nazorat va assessment turlarini validatsiya qilish muhim [Cook & Hatala, 2016; 15]. Mazkur jarayon konsepsiyaning *to‘rtinchi bosqichi* hisoblanadi. Har bir ta‘lim muassasasida “Validation center” (1-jadvalga qarang – muallif ishlanmasi) tashkil etilishi lozim. Shunda ta‘limning maqsadi, mazmuni va baholashning yagona standart asosida olib borilishi mutaxassislar tomonidan nazorat qilinadi. Bizning fikrimizga ko‘ra, har bir ta‘lim muassasasi qoshida “Validation center” (validatsiya yoxud monitoring va tasdiqlash markazi) faoliyati ta‘lim jarayonining maqsadi, mazmuni va baholanishini yagona standart asosida olib borilishini nazorat qilishi [O’Sullivan, 2008; 30] hamda har chorakning boshida belgilangan maqsad va vazifalarni o‘qituvchilarga e‘lon qilishi, chorakning oxirida esa samaradorlik ko‘rsatkichini nazorat qilib o‘rish yoki pasayish statistikasini chiqarishi lozim.

Aynan shu muammoni funksional, tizimli bartaraf etib boorish maqsadida, mazkur maqolada ta‘lim sifatini modernizatsiya qilish konsepsiyasini yaratishga e‘tibor qaratdik. Mazkur konsepsiyada Respublikamizda oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar, belgilangan vazifalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida pedagogik mahorat va malaka darajasiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, o‘quv dasturlarni “ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish”, qolaversa, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi ta‘kidlab o‘tilgan.

1-jadval.

Assesment turlarini validatsiya qilish tizimi

	Ishtirokchilar va usullar	Testni yaratish va validatsiya qilish boshqichlari	
1-faza. Ehtiyojlar tahlili	Adabiyotlar tahlili Me'yoriy hujjatlar tahlili Savolnoma	Ehtiyojlar tahlili Pedagoglar malakasini oshirish	talabalar bilim darajasini aniqlash, ehtiyoj va qiyinchiliklarni aniqlash (o'quv yilining boshida pedagoglar bilan muhokama)
2-faza. Test yaratish	Test spesifikatsiyasini yozish Testni tajribadan o'tkazish Standart tahlili Baholash mezonini yaratish	Test spesifikatsiyasi Test topshirig'ini tanlash Baholash mezonlarini yaratish Qayta aloqa	ta'lim mazmuniga asosan test spesifikatsiyasini yaratish; ta'lim natijalariga asosan baholash mezonini yaratish; mezon asosida qayta aloqa berish usullarini tanlash
3-faza. Testni sinovdan o'tkazish	Test prototipi Testni baholash mezoni Testni sinovdan o'tkazish va samarasini baholash	Test turini sinovdan o'tkazish Test validatsiyasi	testning validligi tahlili
4-faza. Qayta aloqaning ta'siri	Qayta aloqaning ta'lim tizimiga ta'siri	Qayta aloqa samarasining tahlili	natijalar yig'indisi, natijalar tahlili asosida ta'lim samarasi (o'quv yilining oxirida pedagoglar bilan muhokama)

5-faza. Klassifikator talablari	Klassifikatorda belgilangan kasb bo'yicha ta'lim va malaka darajasiga qo'yiladigan talablar	Malaka darajalariga erishish	ish beruvchi talablarining ta'lim dasturlari mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish
---------------------------------	---	------------------------------	--

Shuningdek, kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimini ishlab chiqish hamda oliy ta'lim standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini ikki barobar qisqartirish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanib, unga asosan, "gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash", yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish, "talabalar bilimni baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish". "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish" etib belgilangan. Konsepsiyada asosiy e'tibor ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, bu o'z o'rnida, kasbiy sifatlarini takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli vazifalar ketma-ketligini yoritib berish, va ularning amaliy natijadorligini ko'rsatish maqsadida integratsiya qilish hamda indikatorlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarni samarali ijrosini ta'minlash hamda ta'lim tizimi va ta'lim standartlarini yanada takomillashtirishda ta'lim sifatini modernizatsiyalash konsepsiyasining to'rtta bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni amalga oshirishda quyidagi metodik taklif va tavsiyalarni inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etadi:

1. Ilg'or xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning chet tillar o'qitish standartini takomillashtirish. Bugungi kunda mutaxassislar uchun pedagogik baholash kompetensiyani belgilovchi sifat ko'rsatkichlari, talab va ko'rsatmalari kiritilmagan. Davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish

shart-sharoitiga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar. Demak, standartga mutaxassislarning kasbiy sifati, baholash kompetensiyasiga qo'yiladigan majburiy talablarni kiritish lozim.

2. Pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish. Ya'ni, o'quv reja mazmunida xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini o'rganib, ularning ta'lim dasturlarini tahlil qilib olingan natijalar asosida pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish. Bunday strukturaga ega o'quv rejasi ham talaba, ham pedagogga kursning mazmun-mohiyati haqida to'liq ma'lumot beradi. O'quv yilining boshidan talabalar va pedagoglar kursning maqsad va vazifalari, asosiy va qo'shimcha vositalari, talablari, baholash vazifalari va mezonlari, qo'llanadigan metod va texnikalari haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'ladi.

3. Xorijiy tajribalarni tadqiq etish jarayonida oliy ta'lim muassasalarida "Assesment direktor" va "Assesment markaz"lari mavjudligini aniqladik. Mazkur tajribani milliy ta'lim tizimida joriy etish, ta'lim muassasalarida o'zlashtirish jarayonini monitoringini olib borishda samarali natijalar beradi deb hisoblaymiz. Assesment markaz universitet ta'lim va dasturiy natijalarni yaxshilash natijasida standart, ishchi va o'quv dasturlarini tahlil qiladi va strategik qaror qabul qiladi. Xususan, mazkur markaz ilg'or xorijiy tajribalarni tadqiq qilib, o'quv dasturlari, talabalarni baholash jarayoniga o'zgartirish kiritish xuquqiga ega bo'ladi. Shuningdek talabalar, pedagoglar va dasturlarning samarasi va muvofiqligini baholashning samarali kompleks tizimini ishlab chiqish va loyihalash, nazorat qilish, va tahlil qilishni maqsad qiladi.

Markaz vazifalari:

- universitet baholash tizimini kuchaytirish, pedagoglarda assesment tuzish, qo'llash, tahlil qilish va takomillashtirish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berish;
- assesment markazi nazorat turlarini pedagoglar bilan muhokama qilishi va tuzishida amaliy yordam berish;
- universitetda baholash jarayoniga ta'sir etuvchi o'quv dastur va ta'lim mazmuni jarayonlarini tahlil qilish;
- talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi va akreditatsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni yuritish;
- dekan muovnlari bilan hamkorlik qilish. Dasturlarning tahlilini olib borish/yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- asosiy jarayonlarni takomillashtirish, ya'ni ta'lim natijalarini baholashda pedagog va ma'muriy bo'limning rejalashtirish ishlariga yordam berish;
- ta'lim natijalari haqida qaror qabul qiluvchilarga/testologlarga natijalarni tahlil qilishda yordam berish;
- nazorat jarayonining muvofiqligi, shaffofligini nazorat qilishda tegishli bo'limlarning ish faoliyati samaradorligini nazorat qilish;
- mutaxassislarni "baholash metodikasi"ga oid resurslar bilan ta'minlanishlarini

nazorat qilish;

- pedagoglar uchun baholash metodikasi bo'yicha seminar treninglar tashkil etish;

- universitet, fakultet va kafedralar miqyosida talabalarning ta'lim natijalarini uzluksiz, samarali, va doimiy baholash amaliyotini ta'minlash hamda yanada takomillashtirish maqsadida o'qituvchilar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

- obyektiv baholashni ta'minlash maqsadida baholash mezonlari, vositalari va materiallarni ishlab chiqishda o'qituvchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

- kurs maqsadi, vazifalari, kontenti, baholash metodlari, baholash mezonlari va natijalarni tahlilini aniq ishlab chiqishda pedagoglarga yordam berish;

- bitiruvchi talabalarni bo'lajak mutaxassis sifatida amaliyotini takomillashtirish hamda testolog mutaxassislarni tayyorlash maqsadida markaz faoliyatiga jalb etish;

- ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ehtiyojlar tahlilini olib borish va talaba va pedagoglardan so'rovnoma olish;

- talabalarning o'zlashtirish natijalarini har chorakda monitoringini olib borish va tahlil natijalarini o'qituvchilarga e'lon qilish;

- malakalarni rivojlantirish monitoringini va statistik tahlilni amalga oshirish uchun imkon yaratish;

- natijalar monitoringini manfaatdor shaxslarga yetkazish.

4. Har bir ta'lim muassasasida "Validation center" tashkil etish. Shunda ta'limning maqsadi, mazmuni va baholanishini yagona standart asosida olib borish va nazorat qilish amalga oshiriladi. "Validation center" ta'lim sifati, pedagogik baholash jarayoni va baholash usullarining validligi hamda natijalarning yaroqliligini nazorat qiladi.

5. Ish beruvchi talablarining ta'lim dasturlari mazmuni bilan o'zaro bog'liqligini kuchaytirish orqali ta'limning sifatini oshirish. Shuningdek, bitiruvchilarning nafaqat malaka va bilimlarini balki ularning kasbiy tajribasi, ko'nikmalari, kompetensiya darajalari hamda shaxsiy ishbilarmonlik xususiyatlarini inobatga olgan halda tan olish va validatsiya qilishning moslashuvchan shaffof va xolisona mexanizmlarini joriy etish. Mazkur jarayonda malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda belgilangan klassifikatorlar bilan integratsiyasini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. (2019-yil 8-oktabr). *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
2. Akram, M., & Zepeda, S.J. (2015). Development and Validation of a Teacher Self-assessment Instrument. *Journal of Research & Reflections in Education*, 9(2), 134-148.
3. Biggs, J. (1996). Enhancing teaching through constructive alignment. *Higher Education*, 32, 347-364. <https://doi.org/10.1007/BF00138871>.
4. Biggs, J. (2003a, April 13-17). Aligning teaching and assessing to course objectives. Conference materials on *Teaching and Learning in Higher Education: New Trends and Innovations*. Portugal: University of Aveiro.
5. Biggs, J. (2003b). Aligning teaching for constructing learning. *Higher Education Academy*,

- 1, 1–4.
6. Carr, J.F., & Harris, D.E. (2001). *Succeeding with standards: Linking curriculum, assessment, and action planning*. USA: ASCD.
7. Cook, D.A., & Hatala, R. (2016). Validation of educational assessments: a primer for simulation and beyond. *Advances in Simulation*, 1, 31. <https://doi.org/10.1186/s41077-016-0033-y>.
8. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment* (Comp. Vol.). Strasbourg: Council of Europe Publishing.
9. Lai, E., & Cheung, D. (2015). Enacting teacher leadership: The role of teachers in bringing about change. *Educational Management Administration & Leadership*, 43(5), 673–692. <https://doi.org/10.1177/1741143214535742>.
10. Lightfoot, K., & Schwager, D. (2013). Alignment of course objectives and assessment items: A case study. In M.Khosrow-Pour, D.B.A. (Ed.), *Cases on Assessment and Evaluation in Education* (pp. 1–17). Hershey, PA: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-4666-2621-8.ch001>.
11. Martone, A., & Sireci, S.G. (2009). Evaluating alignment between curriculum, assessment, and instruction. *Review of Educational Research*, 79(4), 1332–1361. <https://doi.org/10.3102/0034654309341375>.
12. McTighe, J., & Thomas, R.S. (2003). Backward design for forward action. *Educational Leadership*, 60(5), 52–55.
13. Meyer-Looze, C., Richards, S., Brandell, S. (2019). Implementing the change process for staff and student success: An instructional module. *International Journal of Educational Leadership Preparation*, 14(1), 170–187.
14. Molina, E., Fatima, S.F., Ho, A.D.Y. (2018, November 26). Measuring teaching practices at scale: Results from the development and validation of the TEACH classroom observation tool. *World Bank Policy Research Working Paper*, 8653.
15. Mooney, N.J., & Mausbach, A.T. (2008). *Align the design: A blueprint for school improvement*. USA: ASCD.
16. Muradkasimova, K.Sh. (2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalarning ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari. *Ped. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
17. National Education Association. (1990). Standards for teacher competence in educational assessment of students. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 9(4), 30–32.
18. O'Sullivan, B. (2008). *Notes on assessing speaking*. USA: Cornell University–Language Resource Center.
19. Pat-El, R.J., Tillema, H., Segers, M., & Vedder, P. (2013). Validation of assessment for learning questionnaires for teachers and students. *The British Journal of Educational Psychology*, 83(1), 98–113. <https://doi.org/10.1111/j.2044-8279.2011.02057.x>.
20. Richards, J.C. (2013). Curriculum approaches in language teaching: Forward, central, and backward design. *RELC Journal*, 44(1), 5–33. <https://doi.org/10.1177/0033688212473293>.
21. Streveler, R.A., Smith, K.A., & Pilotte, M. (2012). Aligning course content, assessment, and delivery: Creating a context for outcome-based education. In K.Yusof, N.Azli, A.Kosnin, S.Yusof, & Y.Yusof (Eds.), *Outcome-Based Science, Technology, Engineering, and Mathematics Education: Innovative Practices* (pp. 1–26). Hershey, PA: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-4666-1809-1.ch001>.
22. Susan, M.B. (2011). Educational assessment knowledge and skills for teachers. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 30(1), 3–12.
23. Yamanaka, A., & Wu, L.Y. (2014). Rethinking trends in instructional objectives: Exploring the alignment of objectives with activities and assessment in higher education – A case study. *International Journal of Instruction*, 7(2), 75–88.
24. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. (2005). (S harfi). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847 (2019, October 8). *On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030*. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
2. Akram, M., & Zepeda, S.J. (2015). Development and Validation of a Teacher Self-assessment Instrument. *Journal of Research & Reflections in Education*, 9(2), 134-148.
3. Biggs, J. (1996). Enhancing teaching through constructive alignment. *Higher Education*, 32, 347–364. <https://doi.org/10.1007/BF00138871>.
4. Biggs, J. (2003, April 13–17). Aligning teaching and assessing to course objectives. Conference materials on *Teaching and Learning in Higher Education: New Trends and Innovations*. Portugal: University of Aveiro.
5. Biggs, J. (2003). Aligning teaching for constructing learning. *Higher Education Academy*, 1, 1–4.
6. Carr, J.F., & Harris, D.E. (2001). *Succeeding with standards: Linking curriculum, assessment, and action planning*. USA: ASCD.
7. Cook, D.A., & Hatala, R. (2016). Validation of educational assessments: a primer for simulation and beyond. *Advances in Simulation*, 1, 31. <https://doi.org/10.1186/s41077-016-0033-y>.
8. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment* (Comp. Vol.). Strasbourg: Council of Europe Publishing.
9. Lai, E., & Cheung, D. (2015). Enacting teacher leadership: The role of teachers in bringing about change. *Educational Management Administration & Leadership*, 43(5), 673–692. <https://doi.org/10.1177/1741143214535742>.
10. Lightfoot, K., & Schwager, D. (2013). Alignment of course objectives and assessment items: A case study. In M.Khosrow-Pour, D.B.A. (Ed.), *Cases on Assessment and Evaluation in Education* (pp. 1–17). Hershey, PA: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-4666-2621-8.ch001>.
11. Martone, A., & Sireci, S.G. (2009). Evaluating alignment between curriculum, assessment, and instruction. *Review of Educational Research*, 79(4), 1332–1361. <https://doi.org/10.3102/0034654309341375>.
12. McTighe, J., & Thomas, R.S. (2003). Backward design for forward action. *Educational Leadership*, 60(5), 52–55.
13. Meyer-Looze, C., Richards, S., Brandell, S. (2019). Implementing the change process for staff and student success: An instructional module. *International Journal of Educational Leadership Preparation*, 14(1), 170–187.
14. Molina, E., Fatima, S.F., Ho, A.D.Y. (2018, November 26). Measuring teaching practices at scale: Results from the development and validation of the TEACH classroom observation tool. *World Bank Policy Research Working Paper*, 8653.
15. Mooney, N.J., & Mausbach, A.T. (2008). *Align the design: A blueprint for school improvement*. USA: ASCD.
16. Muradkasimova, K.Sh. (2019). Features of assessment of students' skills and competencies in teaching English. *PhD thes. ped. scien*. Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
17. National Education Association. (1990). Standards for teacher competence in educational assessment of students. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 9(4), 30–32.
18. *National encyclopedia of Uzbekistan*. (2005). (Let. S). Tashkent: State Scientific Publishing House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
19. O'Sullivan, B. (2008). *Notes on assessing speaking*. USA: Cornell University–Language Resource Center.
20. Pat-El, R.J., Tillema, H., Segers, M., & Vedder, P. (2013). Validation of assessment for learning questionnaires for teachers and students. *The British Journal of Educational Psychology*, 83(1), 98–113. <https://doi.org/10.1111/j.2044-8279.2011.02057.x>.

21. Richards, J.C. (2013). Curriculum approaches in language teaching: Forward, central, and backward design. *RELC Journal*, 44(1), 5–33. <https://doi.org/10.1177/0033688212473293>.
22. Streveler, R.A., Smith, K.A., & Pilotte, M. (2012). Aligning course content, assessment, and delivery: Creating a context for outcome-based education. In K.Yusof, N.Azli, A.Kosnin, S.Yusof, & Y.Yusof (Eds.), *Outcome-Based Science, Technology, Engineering, and Mathematics Education: Innovative Practices* (pp. 1–26). Hershey, PA: IGI Global. <https://doi.org/10.4018/978-1-4666-1809-1.ch001>.
23. Susan, M.B. (2011). Educational assessment knowledge and skills for teachers. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 30(1), 3–12.
24. Yamanaka, A., & Wu, L.Y. (2014). Rethinking trends in instructional objectives: Exploring the alignment of objectives with activities and assessment in higher education – A case study. *International Journal of Instruction*, 7(2), 75–88.